



## SONNING LEKSIK GRAMMATIK XUSUSIYATI

**Latipova Xonzodabegim Ortiq qizi**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*Boshlang'ich ta'lim I-kurs 6. 24-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek tilida son so'z turkumi sifatida o'rganilib, uning leksik-grammatik xususiyatlari chuqur tahlil etilgan. Sonlarning semantik guruhlari, ularning ot bilan munosabati, gapdagi sintaktik vazifalari va morfologik shakllanishi haqida ilmiy asoslangan fikrlar bayon etilgan. Shuningdek, maqolada sonlarning tildagi kommunikativ funksiyasi, matnshunoslik va uslubiy jihatdan tutgan o'rni ham ko'rib chiqilgan. Tadqiqot o'zbek tilining zamonaviy va tarixiy grammatikasi doirasida olib borilib, tilshunoslikda sonlarning o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Son, so'z turkumi, leksik-grammatik xususiyat, natural sonlar, tartib sonlar, morfologiya, sintaksis, ot bilan munosabat, semantika, kommunikativ funksiya

**Abstract:** This article studies the number as a word class in the Uzbek language and deeply analyzes its lexical and grammatical properties. Scientifically based ideas are presented about the semantic groups of numbers, their relationship with nouns, syntactic functions in sentences and morphological formation. The article also examines the communicative function of numbers in the language, their textual and methodological role. The research is conducted within the framework of modern and historical grammar of the Uzbek language and is aimed at highlighting the role and significance of numbers in linguistics.

**Keywords:** Number, word class, lexical and grammatical property, natural numbers, ordinal numbers, morphology, syntax, relationship with nouns, semantics, communicative function

**Аннотация:** В данной статье изучается число как категория слова в узбекском языке и дается углубленный анализ его лексических и грамматических особенностей. Представлены научно обоснованные представления о семантических группах числительных, их связи с существительными, синтаксических функциях в предложениях и морфологическом образовании. В статье также рассматривается коммуникативная функция чисел в языке, их текстовая и методическая роль. Исследование проводится в рамках современной и исторической грамматики узбекского языка и направлено на освещение роли и значения чисел в языкознании.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

**Ключевые слова:** Число, класс слов, лексико-грамматическое свойство, натуральные числа, порядковые числительные, морфология, синтаксис, отношение к существительному, семантика, коммуникативная функция

Soʻzlarning lugʻaviy va grammatik maʼno jihatdan oʻxshashligiga koʻra ayrim leksik - grammatik guruhlariga ajratilish soʻz turkumlari deyiladi. Soʻzlarni turkumlarga ajratishda ularning grammatik maʼnolari bilan bir qatorda, lugʻaviy maʼnosi ham asosiy belgilardan hisoblanadi. Ham grammatik, ham leksik manolarga ega boʻlib, gapda mustaqil sintaktik boʻlak sifatida ishtirok etadigan soʻzlar mustaqil soʻzlar deyiladi. Mustaqil soʻzlarga: ot, sifat, son, olmosh, feʼl, ravish kiradi. Shuni ham taʼkidlash joizki, tilimizdagi baʼzi mustaqil soʻzlar ham nutq jarayonida oʻzining mustaqil lugʻaviy maʼnosini yoʻqotib, grammatik maʼno ifodalashga xoslangan holda, yordamchi soʻz vazifasiga oʻtishi mumkin. Bu hodisa tilshunoslikda grammatikalizatsiya deb yuritiladi. Masalan: koʻrib qolmoq, bilib olmoq, xafta ichi kabi birikmalardagi qol, ol, ich soʻzlari oʻzining mustaqil lugʻaviy maʼnosini yoʻqotgan holda yordamchi soʻz sifatida qoʻllangan. Predmetning miqdorini, sanogini, joylashish tartibini, baʼzan ish-harakatning bajarilish tartibini, miqdoriy belgisini bildiradigan mustaqil soʻz turkumi son deyiladi. Son necha? nechanchi? nechta? qancha? kabi soroqlardan biriga javob beradi. Son otga bogʻlanib, u ifodalagan predmetning konkret miqdoriy belgisini, baʼzan feʼlga bogʻlanib, u ifodalagan harakatning miqdoriy belgisini anglatadi: toʻrtta daftar, ikki oy oʻqidi, birinchi keldi kabi. Arifmetik amallarda esa son otga, feʼlga bogʻlanmagan holda keladi. Bunda son ifodalagan miqdor mavhum maʼnoga ega boladi: ikki qoʻshuv uch. Arifmetik hisoblashda qanday predmetlar miqdorining qoʻshilishi bilan besh hosil boʻlishi aniq emas. Son mustaqil soʻz turkumlaridan biri; predmetning miqdorini, sanoq jihatdan tartibini bildiruvchi soʻzlar guruhi. Son ham sifat va ravish kabi belgi tasavvurini bildiradi va shu jihatdan oʻsha turkumlarga yaqin turadi. Sifat predmetning belgisini, ravish harakatning belgisini, Son esa predmetning miqdori, sanogʻi va tartibiga koʻra belgisini bildiradi. Sonlar otlar bilan birga qoʻllanib, bir necha predmetlarning yigʻindisini, aniq miqdorini (beshta kitob) yoki noaniq, miqdorini (oʻntacha bola) ifodalaydi. Son harflar bilan ifodalanadi (bir, oʻn, ellik) yoki arab va rim raqamlari bilan (3, 5, 10, V, IX, XX) koʻrsatiladi. Sonlar maʼno xususiyatiga koʻra, 2 asosiy turga boʻlinadi: miqdor sonlar va tartib sonlar. Miqdor sonlar predmetning miqdori, sanogʻiga koʻra belgisini koʻrsatadi. Oʻzbek tilida miqdor sonlar 6 turga boʻlinadi: 4 sanoq son, dona son, chama son, jamlovchi son, taqsim son va kasr son. Sanoq son — predmetning sanogʻini bildiruvchi miqdor son turi (bir, ikki, oʻn, yuz). Dona don — predmetning miqdorini donalab koʻrsatuvchi son turi. Bunday sonlar sanoq son ga ta qoʻshimchasini qoʻshish bilan hosil qilinadi (beshta kitob, qirqta daftar). Predmetlarni donalab koʻrsatishda sonlar juft, metr, nusxa, nafar, bosh, tup kabi hisob (numerativ) soʻzlar bilan birga qoʻllanadi: bir juft qoʻshiq, ikki metr atlas, besh tup oʻrik va boshqa. Chama son predmetning noaniq miqdorini, taxminan hisobini koʻrsatadi. Miqdor sonning bu turi 2





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

usul bilan: sanoq songa tacha, lab, larcha affiksalaridan birini qo'shish (o'ntacha, o'nlab, o'nlarcha) va turli sonlarni juftlash yoki ayrim so'zlar bilan birga qo'llash [bir ikki kun, o'n o'n ikki yashar bola, besh oylar chamasi avval, o'ttizga yaqin (qariyb o'ttizta) uy buzildi] orqali hosil qilinadi. Jamlovchi son bir turdagi predmetlarning yig'indisini ifodalaydi, ularni jamlab ko'rsatadi; sanoq songa ov, ala affiksalarini qo'shish bilan hosil qilinadi (beshov, oltov; uchala, to'rtala). Taqsim son predmet miqdorini teng qismlarga taqsimlash, guruhlash yo'li bilan bildiradi va sanoq songa tadan affiksini qo'shish orqali hosil qilinadi (beshtadan bo'lib kelmoq, to'rttadan qalam ushlamoq). Kasr son butunning qismlarini bildiradi va odatda, sanoq sonning chiqish va bosh kelishik shaklidagi birikmasi orqali ifodalanadi: uchdan ikki, o'ndan bir. Yarim (yorti), chorak, nimchorak so'zlari ham kasr sonlardir. Tartib Son predmetning anik, miqdorini, ketma-ketligini ifodalaydi. Ular sifatlarga yaqin bo'lib, ular kabi predmet belgisini bildiradi; sanoq Sonlarga —(i)nchi (ba'zan lamchi) affiksining qo'shilishidan hosil bo'ladi: birinchi, ikkinchi, o'ninchi; birlamchi, ikkilamchi. Tuzilishiga ko'ra, sonlar 4 turga bo'linadi: sodda son — birgina so'zdan ifodalanadi: bir, o'n, ellik, ming; murakkab son — ikki yoki undan ortiq o'zakning birikuvidan hosil bo'ladi: o'n ikki, qirq besh, bir yuz ellik olti, ikki ming to'rtinchi; juft son — birdan ortiq sonning nisbiy teng bog'lanishi asosida tashkil topadi va taxminan miqdorni bildiradi: besh olti kishi, o'n o'n besh kun, ellik oltmish xonadon; takroriy son — bir xil o'zaklarning aynan takrorlanishidan hosil bo'ladi va jamlash yoki taqsimlash ma'nolarini ifodalaydi: bir bir aytib chiqdi, beshta beshta bo'lib saflanmoq, kitobni o'nta o'nta qilib taxlamoq. Tarkibiy qismlarining birikish usuli va bildiradigan ma'nosiga ko'ra, Sonning 2 turi farqlanadi: ko'paytma son — qismlari bildirgan miqdorning ko'paytmasidan iborat bo'lgan miqdorni bildiruvchi murakkab son: besh ming ( $5 \times 1000$ ), uch yuz ( $3 \times 100$ ), uch million ( $3 \times 1000000$ ); qo'shilma son — qismlari bildirgan miqdorning yig'indisidan iborat bo'lgan miqdorni bildiruvchi son: o'n sakkiz ( $10+8$ ), yetmish besh ( $70+5$ ) va shu kabi sonlar gapda, asosan, aniqlovchi, o'rniga qarab boshqa barcha gap bo'laklari vazifasida kela oladi; 2) grammatik miqdor ma'nosini ifodalovchi shakllar tizimi; Son kategoriyasi. O'zbek tilida son kategoriyasining 2 turi mavjud: birlik son — bir turdagi narsa buyumlardan bittasini (o'quvchi, daftar, daraxt); predmetning bir (yakka) shaxsга tegishliligini (ukam, daftaring, qalami); olmoshlarda shaxsning yakkaligini (men, sen, u); fe'llarda harakatni bir (yakka) shaxs bajarishini (oldim, kelding, ko'raman, o'qiysan, boradi) bildiradi; ko'plik son — predmetning birdan ortikdiginini, ko'pligini, uning birdan ortiq (ko'p) shaxsга tegishliligini (kitoblar, daraxtlar; kitobimiz, maktabingiz, uylari); olmoshlarda shaxsning birdan ortiq (ko'p)ligini (biz, siz, bizlar, ular); fe'llarda harakatni birdan ortiq shaxs bajarishini (bordik, borganmiz, boramiz; ishlasak, ishlasangiz) bildiradi. Otlarda birlik sonni ko'rsatadigan maxsus qo'shimcha yo'q, ko'plik son esa lar affiksini qo'shish orqali hosil qilinadi. Ko'p tillarda birlik son ko'plik songa qarama-qarshi qo'yiladi. Biroq ayrim tillarda (son tillarida, Avstraliya va Amerikaning mahalliy tillarida) ikkilik son, ba'zan uchlik son ham uchraydi





Olimlar sonlarning lingvistik xususiyatlari, ularning kelib chiqishi va grammatik vazifalari haqida turli izlanishlar olib borishgan. Quyida ayrim muhim ilmiy qarashlar keltiriladi: 1. Sonlarning grammatik tasnifi Tilshunoslar sonlarni quyidagi turlarga ajratadilar:

1. Hisob sonlari (bir, ikki, uch...),
2. Tartib sonlari (birinchi, ikkinchi, uchinchi...),
3. Boʻlinma sonlar (yarim, uchdan bir...),
4. Taxminiy sonlar (oʻnlab, yuzlab...),

5. Juft son va toq sonlar. Oʻzbek tilshunosi Sh. Rahmatullayev<sup>5</sup> sonlarning sintaktik xususiyatlarini tahlil qilib, ularning sifat, ot yoki ravishga aylanishi mumkinligini taʼkidlaydi. Masalan, “Birinchi kelgan odam” (sifat vazifasida), “Oʻn ming soʻm” (ot vazifasida) kabi.

2. Sonlarning kelib chiqishi va etimologiyasi Tilshunos olimlar, jumladan, A. N. Kononov<sup>6</sup> turkiy tillardagi sonlarning qadimgi turkiy ildizlar bilan bogʻliqligini koʻrsatgan. Masalan, “bir” soʻzi qadimgi turkiy bir shaklidan kelib chiqqan, “ikki” esa eski turkiy ikki shaklidan olingan. 3. Sonlarning sintaktik vazifasi Oʻzbek tilshunosi G., Abdurahmonov<sup>7</sup> sonlarning gap tarkibida turli vazifalarni bajarishini tahlil qilgan: 1. Aniqlovchi: Uch doʻstim bilan uchrashdim. 2. Egiluvchi ot sifatida: Uning birinchiligi hammaga ayon. 3. Kesim vazifasida: Mehmonlar oʻn edi. Uning tadqiqotlari sonlarning morfologik va sintaktik xususiyatlarini yoritishga qaratilgan. 4. Sonlarning semantik va psixolingvistik jihatlari Psixolingvistika nuqtai nazaridan sonlarning idrok qilinishi haqida izlanishlar ham mavjud. Masalan, insonlar kichik sonlarni tezroq eslab qolishadi, kattaroq sonlar esa abstrakt tushunchalar bilan bogʻliq boʻladi. Ushbu ilmiy qarashlar shuni koʻrsatadiki, sonlar faqat matematik birlik sifatida emas, balki murakkab lingvistik va psixologik hodisa sifatida ham oʻrganiladi.

Son (tilshunoslikda) — 1) mustaqil soʻz turkumlaridan biri; predmetning miqdorini, sanoq jihatdan tartibini bildiruvchi soʻzlar guruhi. Son ham sifat va ravish kabi belgi tasavvurini bildiradi va shu jihatdan oʻsha turkumlarga yaqin turadi. Sifat predmetning belgisini, ravish harakatning belgisini, Son esa predmetning miqdori, sanogʻi va tartibiga kura belgisini bildiradi. Sonlar otlar bilan birga qoʻllanib, bir necha predmetlarning yigʻindisini, aniq miqdorini (beshta kitob) yoki noanik, miqdorini (oʻntacha bola) ifodalaydi. Son harflar bilan ifodalanadi (bir, oʻn, ellik) yoki arab va rim raqamlari bilan (3, 5, 10, V, IX, XX) koʻrsatiladi.

Sonlar maʼno xususiyatiga koʻra, 2 asosiy turga boʻlinadi: miqdor sonlar va tartib sonlar. Miqdor sonlar predmetning miqdori, sanogʻiga koʻra belgisini koʻrsatadi. Oʻzbek tilida miqdor sonlar 6 turga boʻlinadi: sanoq son, dona son, chama son, jamlovchi son, taqsim son va kasr son. Sanoq son — predmetning sanogʻini bildiruvchi miqdor son turi (bir, ikki, oʻn, yuz). Dona son — predmetning miqdorini donalab koʻrsatuvchi miqdor son. Bunday sonlar sanoq son ga taʼqoʻshimchasini taʼqoʻshish bilan hosil qilinadi (beshta kitob, qirkta daftar). Predmetlarni donalab koʻrsatishda sonlar juft, metr, nusxa, nafar, bosh, tup kabi hisob (numerativ) soʻzlar bilan birga qoʻllanadi: bir juft taʼqoʻshiq, ikki metr atlas, besh tup





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

o‘rik va boshqa Chama Son predmetning noaniq miqdorini, taxminan hisobini ko‘rsatadi. Miqdor Sonning bu turi 2 usul bilan: sanoq Songa tacha, lab, larcha affiksalaridan birini qo‘shish (o‘ntacha, o‘nlab, o‘nlarcha) va turli Sonlarni juftlash yoki ayrim so‘zlar bilan birga qo‘llash [birikki kun, o‘no‘n ikki yashar bola, besh oylar chamasi avval, o‘ttizga yaqin (qariyb o‘ttizta) uy buzildi] orqali hosil qilinadi. Jamlovchi Son bir turdagi predmetlarning yig‘indisini ifodalaydi, ularni jamlab ko‘rsatadi; sanoq Songa ov, ala affiksalarini qo‘shish bilan hosil qilinadi (beshov, oltov; uchala, to‘rtala). Taqsim Son predmet miqdorini teng qismlarga taqsimlash, guruqlash yo‘li bilan bildiradi va sanoq Songa tadan affiksini qo‘shish orqali hosil qilinadi (beshtadan bo‘lib kelmoq, to‘rttadan qalam ushlamoq). Kasr S butunning qismlarini bildiradi va, odatda, sanoq Sonning chiqish va bosh kelishik shaklidagi birikmasi orqali ifodalanadi: uchdan ikki (  $\frac{2}{3}$  ), o‘ndan bir (  $\frac{1}{10}$  ). Yarim (yorti), chorak, nimchorak so‘zlari ham kasr Sonlardir. Tartib Son predmetning anik, miqdorini, ketma-ketligini ifodalaydi. Ular sifatarga yaqin bo‘lib, ular kabi predmet belgisini bildiradi; sanoq Sonlarga —(i)nchi (ba‘zan lamchi) affiksining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi: birinchi, ikkinchi, o‘ninchi; birlamchi, ikkilamchi.

Tuzilishiga kura, Sonlar 4 turga bo‘linadi: sodda Son — birgina so‘zdan ifodalanadi: bir, o‘n, ellik, ming; murakkab Son — ikki yoki undan ortiq o‘zakning birikuvidan hosil bo‘ladi: o‘n ikki, qirq besh, bir yuz ellik olti, ikki ming to‘rtinchi; juft Son — birdan ortiq Sonning nisbiy teng bog‘lanishi asosida tashkil topadi va taxminan miqdorni bildiradi: besholti kishi, o‘no‘n besh kun, ellikoltmish xonadon; takroriy Son — bir xil o‘zaklarning aynan takrorlanishidan hosil bo‘ladi va jamlash yoki taqsimlash ma‘nolarini ifodalaydi: birbir aytib chiqdi, beshtabeshta bo‘lib saflanmoq, kitobni o‘ntao‘nta qilib taxlamoq.

Tarkibiy qismlarining birikish usuli va bildiradigan ma‘nosiga ko‘ra, Sonning 2 turi farqlanadi: ko‘paytma Son — qismlari bildirgan miqdorning ko‘paytmasidan iborat bo‘lgan miqdorni bildiruvchi murakkab S: besh ming ( $5 \times 1000$ ), uch yuz ( $3 \times 100$ ), uch million ( $3 \times 1000000$ ); qo‘shilma Son — qismlari bildirgan miqdorning yig‘indisidan iborat bo‘lgan miqdorni bildiruvchi S: o‘n sakkiz ( $10+8$ ), yetmish besh ( $70+5$ ) va shu kabi Sonlar gapda, asosan, aniqlovchi, o‘rniga qarab boshqa barcha ran bo‘laklari vazifasida kela oladi; 2) grammatik miqdor ma‘nosini ifodalovchi shakllar tizimi; Son kategoriyasi. O‘zbek tilida Son kategoriyasining 2 turi mavjud: birlik Son — bir turdagi narsabuyumlardan bittasini (o‘quvchi, daftar, daraxt); predmetning bir (yakka) shaxsga tegishliligini (ukam, daftaring, qalami); olmoshlarda shaxsning yakkaligini (men, sen, u); fe‘llarda harakatni bir (yakka) shaxs bajarishini (oldim, kelding, ko‘raman, o‘qiysan, boradi) bildiradi; ko‘plik Son — predmetning birdan ortikdigini, ko‘pligini, uning birdan ortiq (ko‘p) shaxsga tegishliligini (kitoblar, daraxtlar; kitobimiz, maktabingiz, uylari); olmoshlarda shaxsning birdan ortiq (ko‘p)ligini (biz, siz, bizlar, ular); fe‘llarda harakatni birdan ortiq shaxs bajarishini (bordik, borganmiz, boramiz; ishlasak, ishlangiz) bildiradi. Otlarda birlik Sonni ko‘rsatadigan maxsus qo‘shimcha yo‘q, ko‘plik Son esa lar





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC  
SOLUTIONS

affiksini qo‘shish orqali hosil qilinadi. Ko‘p tillarda birlik Son ko‘plik Songa qaramaqarshi qo‘yiladi. Biroq ayrim tillarda (som tillarida, Avstraliya va Amerikaning mahalliy tillarida) ikkilik S, ba‘zan uchlik Son g‘am uchraydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Шоабдурақмонов, М.Асљарова, А.Ќожиёв, И.Расулов, , Х.Дониёров Ќозирги ъзбек адабий тили. 1-љисм .Т., «Њљитувчи» 1980.
2. У. Турсунов, Ж. Мухторов, Ш. Раќматуллаев Ќозирги ъзбек адабий тили. Т., «Њљитувчи» 1992.
3. Њзбек тили грамматикаси. 1-том. Т., «Фан» 1975.
4. N.Mahmudov, A.Nurmonov,A.Sobirov, D.Nabiyeva, A.Mirzaahme-dov Ona tili. Umumta‘lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Т., «Ma‘naviyat» 2005
5. A.N.Kanonov, „Грамматика современного узбекского литературного языка““(Zamonaviy o‘zbek adabiy tili grammatikasi) 1960
6. G“.Abdurahmonov,A.Sulaymonov „Hozirgi o‘zbek adabiy tili sintaksis““ 1980
7. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI." MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEUmarova,
8. Dilafruz Anvarovna. "IMPROVING THE METHODOLOGY OF SOCIOEMOTIONAL DEVELOPMENT OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION IN PRIMARY GRADES." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 5.03 (2024): 394-403.SOLUTIONS 1.2 (2024): 23-25.
9. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA IJTIMOIIY USTANOVKALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI." TADQIQOTLAR 31.4 (2024): 3-6.
10. Umarova, Dilafruz Anvarovna. "BOSHLANG ‘,ICH SINFLARDA TEXNOLOGIK TA‘LIM JARAYONIDA O ‘,QUVCHILARNI IJTIMOIIY-HISSIY RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH." GOLDEN BRAIN 1.30 (2023): 46-49.

